

IJTIMOIY TARMOQLARDA INGLIZ TILINING SODDALASHUVI

Zafarova Nilufar Zafar qizi*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili 3-fakulteti,
2409-guruh talabasi***Ilmiy rahbar: Isaqulova Baxtigul Xo'jamovna***O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili 3-fakulteti,
Amaliy fanlar kafedrasini mudiri*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlar diskursida ingliz tilining soddalashuvi jarayoni lingvistik, sotsiolingvistik va multimodal kommunikatsiya nazariyalari asosida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot 1990–2024 yillar oralig'ini qamrab olgan yirik korpus ma'lumotlari (taxminan 300 million izoh) hamda sifatli diskurs tahliliga asoslanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, soddalashuv jarayoni universal kommunikativ adaptatsiya bo'lib, u tilning degradatsiyasi emas, balki raqamli muhit sharoitida funksional evolyutsiyasidir. Maqolada lingvistik iqtisod tamoyili, identifikatsion markerlar, emoji semiotikasi hamda akademik yozuv kompetensiyasiga ta'sir masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli diskurs, lingvistik iqtisod, adaptiv evolyutsiya, emoji semiotikasi, neologizmlar, sotsiolingvistika, korpus lingvistikasi.

УПРОЩЕНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Зафарова Нилуфар Зафар кизи –Узбекский государственный университет мировых языков, 3-й факультет английского языка, студентка группы 2409

Научный руководитель: Исакулова Бахтигуль Ходжамовна – Узбекский государственный университет мировых языков, 3-й факультет английского языка, заведующая кафедрой прикладных наук

Аннотация. В данной статье на основе лингвистических, социолингвистических теорий и концепции мультимодальной коммуникации проводится комплексный анализ процесса упрощения английского языка в дискурсе социальных сетей. Исследование базируется на данных крупномасштабного корпусного анализа, охватывающего период с 1990 по 2024 год (около 300 миллионов комментариев), а также на качественном дискурс-анализе. Полученные результаты свидетельствуют о том, что упрощение языка представляет собой универсальную коммуникативную адаптацию и является не деградацией, а функциональной эволюцией языковой системы в условиях цифровой среды. В статье рассматриваются принцип языковой экономии, идентификационные маркеры, семиотика эмодзи, а также влияние цифрового

дискурса на академическую письменную компетенцию.

Ключевые слова: цифровой дискурс, языковая экономия, адаптивная эволюция, семиотика эмодзи, неологизмы, социолингвистика, корпусная лингвистика.

SIMPLIFYING ENGLISH IN SOCIAL NETWORKS

Zafarova Nilufar Zafarovna

Student of 2409 group, 3rd faculty of English of the
Uzbek State University of World Languages

Scientific supervisor: Isakulova Bakhtigul Khuzhamovna

Head of the Department of Applied Sciences, 3rd faculty of English of the
Uzbek State University of World Languages

Annotation. This article analyzes in depth the process of English language simplification in the discourse of social networks on the basis of linguistic, sociolinguistic and multimodal theories of communication. The study is based on large corpus data (approximately 300 million comments) covering the period 1990–2024, as well as qualitative discourse analysis. The results show that the process of simplification is a universal communicative adaptation, which is not a degradation of language, but a functional evolution in the context of a digital environment. The article discusses the principles of linguistic economics, identity markers, emoji semiotics, and the impact on academic writing competency.

Keywords: digital discourse, linguistic economics, adaptive evolution, emoji semiotics, neologisms, sociolinguistics, corpus linguistics.

KIRISH

XXI asr kommunikatsiyasi tubdan o'zgardi. Ijtimoiy tarmoqlar insoniyat tarixida ilk bor global, real vaqt rejimida va multimodal muloqot maydonini shakllantirdi. Bugungi kunda Telegram, Instagram, X (Twitter), TikTok va WhatsApp kabi platformalar nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki til o'zgarishining asosiy katalizatoriga aylangan. Ingliz tili ushbu raqamli makonda dominant kommunikativ vosita sifatida faoliyat yuritib, turli millat va madaniyat vakillarini yagona lingvistik maydonda birlashtirmoqda. Ayniqsa, ingliz tilining global lingua franca maqomi uning ijtimoiy tarmoqlarda keng qo'llanishini yanada kuchaytirmoqda.

Biroq raqamli platformalar o'zining tezkorligi, qisqa format talabi va vizual komponentlarga tayanishi sababli til strukturasi va foydalanish me'yorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xabarlarining lakonikligi, belgilar soni bo'yicha cheklovlar, tezkor javob qaytarish ehtiyoji hamda emojilar va boshqa vizual belgilar integratsiyasi natijasida ingliz tilida soddalashuv tendensiyasi kuzatilmoqda. Ommaviy diskursda

ko‘pincha “Internet tilni buzmoqda” degan qarash uchraydi, ya’ni qisqartmalar, grammatik tushirib qoldirishlar va orfografik erkinliklar tilning degradatsiyasi sifatida talqin qilinadi. Shu bois ushbu jarayonni ilmiy asosda, obyektiv va nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalaga aylanadi.

Til soddalashuvi fenomeni lingvistik iqtisod (language economy) tamoyili bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur nazariyaga ko‘ra, kommunikatsiya jarayonida inson maksimal axborotni minimal til vositalari orqali yetkazishga intiladi. Bu jarayon til tizimida ortiqcha elementlarning qisqarishi, redundant birliklarning yo‘qolishi va ifoda shaklining ixchamlashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Trudgill (2001) ta’kidlaganidek, yuqori kontaktli jamiyatlarda — ya’ni katta, zich va tezkor kommunikatsiya muhiti mavjud bo‘lgan sharoitda — murakkablikdan ko‘ra soddalashuv ustuvorlik kasb etadi. Bunday muhitda morfologik reduksiya, sintaktik qisqarish, redundansning kamayishi va semantik kengayish jarayonlari faolroq kuzatiladi.

Shuningdek, Crystal (2006) internet tilini og‘zaki va yozma nutq xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan gibrid janr sifatida tavsiflaydi. Raqamli diskurs nafaqat yangi kommunikativ vositalarni, balki yangi funksional registrni ham shakllantiradi. Natijada tilning rasmiy va norasmiy shakllari o‘rtasidagi chegaralar dinamik tus oladi, foydalanuvchilar esa kontekstga mos ravishda turli registrlar o‘rtasida erkin almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu jihatdan, ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilining soddalashuvi jarayoni tilning tanazzuli emas, balki uning zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga moslashuv jarayoni sifatida talqin etilishi lozim.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot aralash metodologiya (mixed-methods) yondashuvi asosida olib borildi. Ushbu yondashuv kvantitativ va kvalitatif usullarni uyg‘unlashtirish orqali ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilining soddalashuvi jarayonini har tomonlama va chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot uch asosiy bosqichdan iborat bo‘ldi: korpus asosidagi kvantitativ tahlil, diskursning sifatli tahlili hamda sotsiolingvistik so‘rovnoma.

Birinchi bosqichda 1990–2024 yillar oraliq‘ini qamrab olgan, taxminan 300 million ingliz tilidagi izohdan iborat yirik korpus ma’lumotlari tahlil qilindi. Kvantitativ tahlil doirasida tilning soddalashuv darajasini aniqlash maqsadida bir qator lingvistik metrikalar qo‘llanildi. Xususan, leksik boylikni baholash uchun token/type nisbati (ya’ni umumiy so‘zlar sonining noyob so‘zlar soniga nisbati) hisoblandi. Shuningdek, o‘rtacha matn uzunligi, so‘z takrori darajasi va umumiy leksik diversifikatsiya ko‘rsatkichlari aniqlanib, vaqt davomida ularning dinamikasi o‘rganildi. Mazkur ko‘rsatkichlar orqali soddalashuv tendensiyasining miqdoriy tasviri shakllantirildi.

Ikkinchi bosqichda kvalitatif diskurs tahlili amalga oshirildi. Ushbu bosqichda 150 ta shaxsiy chat (Telegram, WhatsApp va boshqa messengerlar) hamda forum

muhokamalari tanlab olinib, tematik kodlash usuli asosida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida soddalashuvning asosiy kategoriyalari ajratib ko'rsatildi: abbreviatura va akronimlardan foydalanish, emoji substitutsiyasi (so'z yoki ibora o'rnida emoji qo'llanishi), sintaktik ellipsis (gap elementlarining tushirib qoldirilishi) hamda orfografik reduksiya (imlo qoidalarining soddalashuvi). Har bir hodisa kommunikativ vazifasi va kontekstual ahamiyati nuqtai nazaridan baholandi.

Uchinchi bosqichda sotsiolingvistik so'rovnoma o'tkazildi. Unda ingliz tilini ona tili sifatida qo'llovchi foydalanuvchilar (NES – Native English Speakers) hamda ingliz tilini chet tili sifatida o'rganuvchi va qo'llovchi foydalanuvchilar (EFL – English as a Foreign Language users) ishtirok etdi. So'rovning asosiy maqsadi emoji va qisqartmalarning nafaqat tejamkorlik vositasi, balki guruhviy identifikatsiya, yoshga oid farqlanish va raqamli savodxonlik indikatori sifatidagi rolini aniqlashdan iborat bo'ldi. Olingan natijalar soddalashuv jarayonining lingvistik va ijtimoiy funksiyalarini kompleks yoritishga xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilining soddalashuvi tasodifiy yoki fragmentar hodisa emas, balki uzoq muddatli va sistemali transformatsiya ekanligini ko'rsatdi. 34 yillik (1990–2024) korpus ma'lumotlari asosida aniqlanishicha, raqamli diskursda til strukturasi izchil ravishda ixchamlashib bormoqda. O'rtacha matn uzunligi 30–40 foizga qisqargan, leksik diversifikatsiya darajasi kamaygan, so'z takrori (repetitivlik) esa nisbatan oshgan. Biroq neologizm yaratish tezligining barqaror saqlanib qolishi muhim ko'rsatkichdir. Bu shuni anglatadiki, foydalanuvchilar kamroq va soddaroq yozishga moyil bo'lsalar-da, yangi leksik birliklar yaratish va semantik innovatsiya jarayoni to'xtamagan. Demak, mazkur dinamika tilning "o'lishi" emas, balki uning funksional qayta tashkil topishi va kommunikativ ehtiyojlarga moslashuvi sifatida talqin qilinishi lozim.

Leksik soddalashuv eng yaqqol kuzatiladigan yo'nalishlardan biridir. Abbreviatura va akronimlar (masalan, LOL, BRB, IDK, SMH) nafaqat vaqt va belgilarni tejash vositasi, balki ijtimoiy marker vazifasini ham bajaradi. Ular ma'lum bir raqamli subkulturaga mansublikni bildiradi va foydalanuvchilar o'rtasida "in-group" identifikatsiyani mustahkamlaydi. Shu bilan birga, semantik kengayish jarayoni ham kuzatiladi. Masalan, "like" fe'li an'anaviy ma'nodagi "yoqtirmoq" tushunchasidan tashqari, ijtimoiy tarmoq platformalarida maxsus funksional birlikka — tugmani bosish orqali tasdiqlash yoki qo'llab-quvvatlash aktiga aylangan. Bu holat raqamli muhit tilning semantik maydonini kengaytirayotganini ko'rsatadi.

Grammatik reduksiya ham soddalashuvning muhim komponentidir. Ijtimoiy tarmoq diskursida yordamchi fe'llarning tushib qolishi ("You coming?"), artikllarning ishlatilmasligi ("Need coffee"), to'liq gap o'rniga fragmentlarning qo'llanishi ("Busy. Call later.") keng tarqalgan. Ushbu hodisalar yozma nutqning og'zaki nutqqa

yaqinlashuvini anglatadi. Natijada internet tili ogʻzaki va yozma nutq elementlarini sintez qilgan gibril shakl sifatida namoyon boʻladi.

Multimodal evolyutsiya esa raqamli diskursning oʻziga xos xususiyatidir. Emoji oddiy rasm yoki dekorativ element emas, balki semiotik birlik sifatida faoliyat yuritadi. U affektiv signal (hissiyotni ifodalash), pragmatik yumshatish vositasi (nutq ohangini yumshatish yoki kinoyani koʻrsatish), kontekstual aniqlashtiruvchi hamda guruh identifikatori vazifasini bajaradi. Danesi (2016) emoji larni zamonaviy piktografik til elementlari sifatida baholab, ularni raqamli kommunikatsiyaning yangi semiotik qatlamiga kiritadi. Bu jarayon yozma nutqning vizual komponent bilan boyishini anglatadi.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, soddalashuv til rivojlanishida yangi hodisa emas. Qadimgi ingliz tilida mavjud boʻlgan murakkab kelishik tizimi zamonaviy ingliz tilida sezilarli darajada qisqargan. Morfologik reduksiya va sintaktik soddalashuv tarix davomida bir necha bor kuzatilgan. Demak, raqamli davrdagi soddalashuv til evolyutsiyasining navbatdagi bosqichi sifatida qaralishi mumkin.

Raqamli platformalarning texnik cheklovlari ham soddalashuvni ragʻbatlantiradi. Masalan, Twitter'dagi 280 belgi limiti yoki TikTok'dagi qisqa video formati foydalanuvchini lakonik ifoda qilishga undaydi. Bu jarayonda lingvistik iqtisod qonuni ishlaydi: ortiqcha morfologik va sintaktik elementlar chiqarib tashlanadi, mazmun minimal vositalar orqali yetkaziladi.

Biroq mazkur transformatsiyaning pedagogik oqibatlari ham mavjud. Ayniqsa, EFL talabalari uchun registrlar chegarasining xiralashuvi muammo tugʻdiradi. Ijtimoiy tarmoqdagi soddalashtirilgan nutq bilan akademik yozuv oʻrtasidagi farqni anglamaslik formal matnlarda punktuatsiya xatolari, informal iboralar va fragmentar gaplardan foydalanishga olib kelishi mumkin. Shu sababli oliy taʼlim jarayonida digital register va academic register oʻrtasidagi farqni aniq oʻrgatish muhimdir. Informal matnni formalga aylantirish mashqlari, emoji diskursini pragmatik tahlil qilish kabi metodik yondashuvlar talabalarning registr sezgirligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, olingan natijalar ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilining soddalashuvi global, sistemali va funksional jarayon ekanini tasdiqlaydi. U tilning degradatsiyasi emas, balki raqamli kommunikativ muhitga moslashgan adaptiv evolyutsiya shaklidir.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilining soddalashuvi tasodifiy, epizodik yoki vaqtinchalik hodisa emas, balki global miqyosda kuzatilayotgan, sistemali, adaptiv va multimodal xarakterga ega boʻlgan lingvistik jarayondir. Ushbu transformatsiya maʼlum bir platforma, yosh toifasi yoki ijtimoiy guruh bilan cheklanmaydi; aksincha, u keng koʻlamli raqamli kommunikativ muhitning tabiiy va muqarrar natijasidir. Raqamli diskurs sharoitida til oʻzining strukturaviy (morfologik va sintaktik), funksional (pragmatik va semantik) hamda

semiotik (vizual-belgili) xususiyatlarini yangi kommunikativ talablar asosida qayta tashkil etmoqda.

Soddalashuv jarayoni leksik, grammatik, sintaktik va multimodal darajalarda bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi. Leksik darajada abbreviatura, akronimlar va neologizmlar keng qo'llanilsa, grammatik darajada yordamchi fe'llarning tushib qolishi, artikllarning qisqarishi va gap fragmentlarining ko'payishi kuzatiladi. Sintaktik jihatdan murakkab konstruksiyalar o'rnini ixcham, lakonik strukturalar egallamoqda. Multimodal darajada esa emoji, gif va boshqa vizual elementlar nutqning ajralmas qismiga aylanib, an'anaviy verbal ifodani to'ldirmoqda yoki ayrim hollarda uning o'rnini egallamoqda. Ushbu hodisalar lingvistik iqtisod tamoyiliga asoslanadi, ya'ni kommunikatsiyada maksimal mazmunni minimal vositalar orqali yetkazish tendensiyasi ustuvorlik kasb etadi.

Muhim jihat shundaki, qisqartmalar, akronimlar, sintaktik ellipsis, orfografik erkinlik va emoji integratsiyasi tilning degradatsiyasi yoki normativ tanazzuli sifatida emas, balki tezkor, interaktiv va multimodal kommunikatsiya sharoitiga moslashuvning ifodasi sifatida talqin qilinishi kerak. Til tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, har bir yangi kommunikatsiya texnologiyasi — bosma matnning ommalashuvi, telegraf, telefon, radio, televideniye va hatto SMS xabarlar — lingvistik tizimda ma'lum o'zgarishlarni yuzaga keltirgan. Ijtimoiy tarmoqlar esa ushbu evolyutsion jarayonni sezilarli darajada tezlashtirdi va tilning transformatsiya jarayonini yanada ko'rinadigan va ommaviy shaklga olib chiqdi.

Shu bilan birga, mazkur o'zgarishlarning pedagogik jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ingliz tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar (EFL) uchun raqamli va akademik registr o'rtasidagi farqlarni aniq anglash dolzarb masaladir. Ijtimoiy tarmoq diskursida shakllangan soddalashtirilgan nutq shakllari akademik yozma ishlar va rasmiy kommunikatsiyaga ko'chirilmasligi lozim. Shu sababli zamonaviy til pedagogikasi talabalarga registr o'rtasidagi tafovutni o'rgatish, kontekstga mos nutq strategiyalarini tanlash ko'nikmasini shakllantirish hamda multimodal elementlarning pragmatik funksiyalarini tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi zarur.

Kelgusida sun'iy intellekt asosidagi matn generatsiya tizimlari va inson diskursi o'rtasidagi o'zaro ta'sir alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi kutilmoqda. Katta til modellari (LLM) tomonidan yaratilgan matnlar raqamli kommunikatsiya me'yorlariga ta'sir ko'rsatib, soddalashuv jarayonini standartlashtirishi yoki aksincha, yangi murakkablik shakllarini kiritishi mumkin. Shu bois raqamli diskurs, soddalashuv va sun'iy intellekt o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish kelajak lingvistik tadqiqotlar uchun istiqbolli va dolzarb yo'nalish bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardagi ingliz tili evolyutsiyasi tilning pasayishi emas, balki uning zamonaviy kommunikativ makonga moslashgan yangi

bosqichidir. Ushbu jarayonni ilmiy asosda o'rganish nafaqat hozirgi davr lingvistikasi, balki kelajak kommunikativ tizimlarni anglash uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FORDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1.] O'razimbetova L., Zubaydova N. ingliz tili va ijtimoiy tarmoqlar //problems and solutions of scientific and innovative research. – 2024. – T. 1. – №. 6. – c. 190-193.
- [2.] Kaxarovna X. M. et al. XXI asrda Rus tilining evolyutsiyasi: yangi so'zlar va tendentsiyalar //Modern education and development. – 2025. – T. 25. – №. 4. – C. 134-136.
- [3.] Eshmurodova Z. S. Nemis tilining hozirgi kundagi taraqqiyoti va yoshlar hayotidagi o'rnini //golden brain. – 2026. – T. 4. – №. 1. – C. 109-112.
- [4.] Qizi A. K. J. Zamonaviy tilshunoslikda mediatekst lingvistikasi: tushuncha, shakllanish jarayoni va nazariy yondashuvlar //Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – T. 3. – №. 12-2. – C. 181-187.
- [5.] Пирназарова М. Aman matchon-an expert on classic literature studies //O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022,[1/10] ISSN 2181-7324.
- [6.] Anvari R. et al. Qadimgi va zamonaviy ingliz tilida grammatik tuzilma va infleksiya tizimi //Научный Фокус. – 2025. – T. 3. – №. 30. – C. 60-64.
- [7.] Abdumannovna A. N. et al. Raqamli media diskursining lingvistik o'zgarishlarga ta'siri //pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 8. – №. 1. – C. 116-118.
- [8.] LUG'ATLARIDA O. Z. T. i. uo'k 81-13 O'zbek tili izohli lug'atlarida terminlarning kodifikatsiya qilinishi JJ Egamberdiyev, dots., Andijon Davlat Chet Tillari Instituti, Andijon //Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – 2025. – C. 113.
- [9.] Sayyora K. The influence of journalistic style on the syntax of the uzbek language //London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI). – 2025. – T. 2. – №. 1. – C. 407-410.
- [10.] Eshmurodova Z. S. Nemis tilining hozirgi kundagi taraqqiyoti va yoshlar hayotidagi o'rnini //golden brain. – 2026. – T. 4. – №. 1. – C. 109-112.